

PO‘LATXON QO‘ZG‘OLONI BOSHLANISHI UCHUN SHAROITLAR VA XALQ TOMONIDAN QO‘LLAB - QUVVATLANISHI

Juliboyev Alimardon Abdulmajid o‘g‘li

QDPI Tarix fakulteti Tarix ta’lim yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13133355>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz 1870 – yillarga kelganda Qo‘qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvolni bir qator tadqiqotlar asosida taxlil etamiz. Bu davrda xonlik hududi ancha qisqarib ketgan, xazinaga tushadigan daromadlar ham kamaygan edi. Xazinani to‘ldirish uchun esa, og‘ir va xilma-xil soliq va majburiyatlar joriy etilardi. Qo‘qon xonligi Rossiya tomonidan egallana boshlangandan so‘ng, aholining ahvoli kundan-kunga yana ham og‘irlashib bordi. Xalqdan keragidan ortiq narsalar talab etila boshlandi. Bosqinchilar zulmi ostida qolgan xalqning hayoti og‘irlashib ketishi, soliqlarning ko‘payib borishi, qimmatchilik va ocharchilikning avj olishi, amaldorlarga nisbatan nafratning oshib borishi esa, xalqning qo‘llariga qurol olib, o‘z ozodliklari, erklari uchun kurashishiga sabab bo‘ldi. O‘rta Osiyo tarixida eng uzoq davom etgan xalq harakatlaridan biri bo‘lgan Po‘latxon qo‘zg‘oloni shu tarzda boshlandi. Ammo bu qo‘zg‘olonga baho berishda shu kunga qadar tarixchi olimlar o‘rtasida hamfikrlik yo‘q. Birlari uni “xalq harakati” desa, ikkinchilari “reaktsion harakat”, uchinchilari “milliy ozodlik kurashi”, boshqalari esa “o‘zaro feodal urush” deb ataydilar.

Kalit so‘zlar: Po‘latxon, xalq xarakatlari, soliqlar, Qo‘qon xonligi, qirg‘izlar.

CONDITIONS AND POPULATION SUPPORT FOR THE START OF THE STEEL REVOLT

Abstract. In this article, we analyze the political processes and the internal situation in the Kokhan Khanate in the 1870s based on a number of studies. During this period, the territory of the khanate was much reduced, and the revenues to the treasury were also reduced. To fill the treasury, heavy and various taxes and duties were introduced. After the occupation of the Kokan Khanate by Russia, the situation of the population became worse day by day. More things were demanded from the people. The life of the people under the tyranny of the conquerors became more difficult, taxes increased, inflation and hunger increased, and hatred for the officials increased, which caused the people to take up arms and fight for their freedom and liberties. This is how the Polat Khan Uprising, one of the longest-lasting popular movements in the history of Central Asia, began. However, there is no consensus among historians in the assessment of this uprising. Some call it "people's movement", others "reactionary movement", still others "national liberation struggle", and others "inter-feudal war".

Key words: Polat Khan, people's movements, taxes, Kokan Khanate, Kyrgyz.

УСЛОВИЯ И ПОДДЕРЖКА НАСЕЛЕНИЯ ДЛЯ НАЧАЛА СТАЛЬНОГО ВОССТАНОВЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье на основе ряда исследований анализируются политические процессы и внутренняя ситуация в Коканском ханстве в 1870-е годы. За этот период территория ханства значительно сократилась, сократились и поступления в казну. Для наполнения казны были введены тяжелые и разнообразные налоги и повинности. После оккупации Коканского ханства Россией положение населения день ото дня ухудшалось. От народа требовалось больше вещей. Жизнь народа под тиранией

завоевателей усложнилась, увеличились налоги, увеличилась инфляция и голод, усилилась ненависть к чиновникам, что заставило народ взяться за оружие и бороться за свою свободу и вольности. Так началось восстание Полат-хана, одно из самых продолжительных народных движений в истории Центральной Азии. Однако среди историков нет единого мнения в оценке этого восстания. Одни называют его «народным движением», другие «реакционным движением», третьи «национально-освободительной борьбой», третьи «межфеодальной войной».

Ключевые слова: Полат-хан, народные движения, налоги, Коканское ханство, киргизы.

Rossiya hukumati XIX asrning 60 – yillaridan e’tiboran O’rta Osiyoga harbiy xarakatlarni boshladi. 1862 - yil kuzida Qo’qon xonligiga qarashli Pishpak va To’qmoq qal’alarini rus qo’shinlari egallaydi. 1864 - yil bahorida Sibir va Sirdaryo liniyalari birlashtirildi.

Bu joylardan polkovnik M. Chernyaev va polkovnik N. Verovkin boshchiligida ikki rus otryadi jo’natiladi. Rus qo’shinlari Avliyo ota va Turkistonni zabt etadi. M. Chernyaev Rossiya tarafdorlari yordami bilan Toshkentni ixtiyoriy ravishda bo’ysundirishga xarakat qiladi.

Ammo, Toshkentning hamma aholisi Rossiyaga bo’ysunish fikrida emas edi. Shuning uchun ham Chernyaev 1865 - yil iyun oyida Toshkentga hujum qilib, uni bosib oladi. 1865 - yil avgustda esa, Toshkent rasmiy sur’atda Rossiya imperiyasi mustamlakasi deb e’lon qilinadi.

Qo’qon xonligining Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa shaharlarini bosib olgan chor istilochilari bu hududlarni Rossiya tasarrufiga kiritib oladilar va rasmiy “qonunlashtirib” ham qo’yadilar. 1868 - yil 13 - fevral kuni Turkiston general-gubernatorligi bilan Qo’qon xonligi o’rtasida shartnoma imzolanadi. Bu kelishuv, o’z mohiyati bilan, Qo’qon xonligi uchun nihoyatda og’ir, sharmandali shartnoma edi¹. Rossiya hukumati tazyiqi ostida, Rossiyaning manfaatlarini ko’zlab tuzilgan bu shartnomadan xonlikning butun xalqi qoniqmaydi. O’sha paytda xalq orasida xon va uning gumashtalari Qo’qon xonligini chor Rossiyasiga sotmoqchi, degan fikrlar ham keng tarqalgan edi. Uning zamondoshlarining guvohlik berishicha, Xudoyorxon so’nggi o’n yillik (1865-1875) xukmdorligida o’z xalqini mislsiz taladi, bu davr o’g’rilik va qotillikga to’la davr edi. Shu davr tarixchisi bo’lgan va tarixini yozgan Muhammad Aziz Marg’iloniy o’z asarida Xudoyorxonning so’nggi safari haqida shunday yozadi: “Yana taxtga o’tirsam hammaga teng podsho bo’laman, birini biridan farq etmayman” deb parvardigorga shart va va’da qilgan ekan”².

Xudoyorxonning ayshu-ishratga mukkasidan ketib, xalq, Vatan manfaatini chet el bosqinchisi oyog’i ostiga tashlaganini esa shunday tasvirlaydi: “O’rusiya bilan urushmayman. Boji xiroj berib turishni xohlayman. Pulni ko’paytirsam bo’lar ekan. Boshqa tomondan keladigan yov yo’q.

Boxuzur ayshu ishrat qilib yotaman”, deb muqarrar qilibdi³. Molu dunyoga haddan ziyoda hirs qo’ygan va xazinasini boyitish uchun ko’p soliqlar solgan.

¹O’zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob / Mas’ul muharrir N. Abduazizova. - T.: “Sharq”, 2011. - B. 182.

²Muhammad Aziz Marg’iloniy. Tarixi Aziziy (Farg’ona chor mustamlakasi davrida). Nashrga tayyorlovchilar: Shodmon Vohidov, Dilorom Sangirova. T.: “Ma’naviyat”, 1999, - B. 14.

³O’sha joyda. – B. 14.

Xudoyorxonning mana shunday ishlari va razil axloqi xalq, beklar, sipohiylar, boylar va ulamolaming noroziligini keltirib chiqargan. Xudoyorxonning majburiy yo'llar bilan soliq to'plab, katta boylik orttirgani, hatto, o'lkani istilo qilgan rus mustamlakachilarining asarlarida ham o'z aksini topgan: "Soliquqa tortiladigan mollarning turlari juda ko'p bolib, ular imkoni boricha barcha narsalardan olinib, xalq tom ma'noda shilingan. Hatto kambag'allar keltirib sotadigan qamish shox-shibba, yantoq va shunga o'xshash narsalardan ham soliq undirilgan.

Keyingi vaqtlarda tog'lardan ariqlar orqali oqib keladigan suvga ham soliq solingan. Faqat nafas olinayotgan havodan soliq olinmagan xolos. Bu hol xonga qarshi norozilikning asosiy omillaridan biri boigan edi". Oqibatda mamlakatda g'alayonlar boshlandi. Xalq bundan norozi bo'lib 1871 - yili So'xda g'alayon ko'taradi. Xon uni osongina tinchitadi. Lekin bundan o'ziga saboq olmaydi. O'sha kezlarda Qo'qon xonligida yana bir muhim hodisa – Po'latxon qo'zg'oloni sodir bo'ladi. Bu hodisa ruslar tomonidan xonlikning tugatilishi va uning hududlari Rossiyaga qo'shib olinishini tezlashtiradi. 1873 - yilning bahorida xalq qo'zg'oloni ko'tarildi.

Bu mashhur Po'latxon qo'zg'oloni edi. Bu qo'zg'olon 1875 - yilning 7 - avgustida milliy ozodlik kurashiga aylanib ketadi. Mirzo Olim Mushrifning (Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin) asarida shunday ma'lumot bor: "Abdurahmon Oftobachini qo'shub, ko'p askar birla buyurdi. Bular borib urushub qirg'izlarni qochurdilar. Qirg'izlar parishon bo'lub ketdilar. Bir necha biylar, chunonchi, Umarbek, Abdurahmon shayton, Qoraqushbiy va Sulaymon o'g'ri va bir necha qirg'iz biylar birla qolga tushti, ko'p obro' birla kelib xonni ko'rub, muloqot qilib, duo ayladilar. Filjumla, xotirjam bo'ldilar. Ersal Musulmonqul degan qirg'iz qipchoq urushdan qochub, bir necha qirg'izlar maslahat aytab xonzoda topmoq uchun Buxoro tarafiga borib, Po'latxon valadi Murodxonni oldiga borib vasvasa qilib ekan. Urganjga, Muhammad Alixon o'g'li Muzaffarxonning oldiga borib, necha kun turub vasvasa qildikim, xon qilib, ota taxtiga o'turmoqqa fотиha o'qubmiz, sizga buyurdilar, hamma xaloyiq sizga muntazir turubdilar, debdi.

Muzaffarxon aytdikim: "Sizga qirg'iz xalqini e'tiborlaring yo'q turur. Qalandarxon akamni ham olib borib, Murg'zor qishloqda o'ldurub qo'ydinglar. Alhamdulillah yovhat bahuzur" deb qabul qilmadi. Musulmonqul noiloj qaytib Toshkentga keldi, ersa Muhsinboyning o'g'li mullo Abdulmo'minning hovlisiga qo'nub erdi. Anda bir mulla Ishoq degan qirg'iz bala Mazang degan mavze'da nosfurushlik qilur ekan. Azbaroyi nos olmoqqa kelgan ekan.

Abdulmo'min mazkur aytdikim: "Ey ahmoq qirg'iz, shul qirg'iz balani Po'ladxon deb olib borg'il. Ish saranjom topganda, bir xon topilur", dedi ersa ma'qul bo'lib, o'shal qirg'iz balani olib Obliq ustidin oshib Chust ustiga kelib, qo'shung'a qo'shuldi. Qirg'izlar hursand bo'lub, shodiyona qo'ydilar, oq kigizga solib xon ko'tardilar"⁴. Po'latxon⁵ 1844 – yilda Marg'ilon shahriga yaqin Uhna degan qishloqda istiqomat qiluvchi Bo'ston qabilasiga mansub oilada tug'ilgan va otasi Marg'ilondagi Oqmadrasada mudarrislik qilgan. O'zi Qo'qondagi Tunqator madrasasida o'qigan.

Andijondagi masjidda imomlik qilgan, savdogarlik, nosfurushlik bilan ham shug'ullangan.

Toshkentga kelib, Abdulmo'min otaliq bilan tanishgach, shu yerda vaqtincha yashab qoladi. 1872 - yili Sher dodxoh boshliq bir guruh qo'qonliklar Samarqandda istiqomat qilayotgan

⁴Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin: "Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi" (Qo'qon xonligi tarixi) (Nashrga tayyorlovchi: A. Matg'oziev, M. Usmonova; So'zboshi muallifi A. Matg'oziev)T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1995, -B. 80-81.

⁵Ishoq Hasan o'g'li (1844 – 1876 – yillar. Marg'ilon).

Po'latbekni (Olimxonning nevarasi) Qo'qonga taklif qilib, uni xon qilib ko'tarishga va'da qilishadi. Lekin, Po'latbek bu taklifni rad etadi. Shundan so'ng qo'qonliklar Toshkentga kelib, Abdulmo'min otaliq bilan uchrashganlar. Ularning iltimosiga ko'ra, Ishoq Hasan "Po'latxon" nomi bilan fitnachilar va hokimiyat uchun kurashayotgan qirg'izlar qo'zg'oloniga boshchilik qilishga rozi bo'lgan va Namanganga (Koson)⁶ kelib qo'zg'olonga rahbarlik qila boshlagan.

Uning tomoniga Xudoyorxon siyosatidan norozi bo'lgan yirik boylar, qabila zodagonlari va harbiylar, hatto Xudoyorxonning o'g'li va boshqa qarindoshlari ham o'tgan. 1873 - yilda qirg'izlar "Po'latxon"ni Qo'qon xoni deb e'lon qilgan edilar. Ammo, Xudoyorxon Toshkentga qochgandan keyin Abdurahmon oftobachi Nasriddinbekni xon deb e'lon qilib taxtga o'tqizgan.

Shu sababli "Po'latxon" Abdurahmon oftobachi va Nasriddinxonlarga qarshi kurashni boshlab yuboradi. Oqibatda, Qo'qon xonligida ikki hokimiyatchilik paydo bo'ladi. Buning oldini olib, kuchlarni birlashtirish maqsadida Abdurahmon oftobachi 1875 - yil 7 - avgustida Chor Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi g'azavot e'lon qiladi va xalq ozodlik harakatini boshlab yuboradi. "Po'latxon" bu harakatni qo'llab quvvatlaydi, ammo qo'shinini jangga olib kirmaydi.

1875 - yil 23 - avgustida Mahram qal'asi ostonasida ruslar bilan Abdurahmon oftobachining qo'shini o'rtasida qattiq jang bo'ladi.

Qo'qonliklar mag'lubiyatga uchraydi. K. P. Kaufman qo'zg'olonchilarni birin - ketin tor - mor etib, Qo'qon, Marg'ilon va O'shni jangsiz bosib olgan. 1875 - yil 22 - sentyabrda Kaufman Marg'ilon shahriga Nasriddinxonni taklif qilib, aholi uchun juda og'ir bo'lgan shartnomaga imzo chektiradi. Natijada, aholi Nasriddinxonga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Nasriddinxon Toshkentga qochishga majbur bo'ladi. "Po'latxon" rasman Qo'qon xoni deb e'lon qilinadi. Abdurahmon oftobachi ham uni tan oladi. "Po'latxon" bilan yarashib harbiy kuchlarini birlashtiradi. Rus askarlari bilan bo'lgan janglarda kuchlar teng bo'lmagani natijasida "Po'latxon" mag'lubiyatga uchraydi. 1876 - yil 1 - martda Marg'ilon shahrida dorga osib o'ldiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qo'qonda kechgan janglarda yengilgan soxta Po'latxon Marg'ilon yaqinida ruslar qo'liga tushadi. Uni xalqning ko'z o'ngida dorga osishadi. Haydarbek Bobobekovning yozishicha, soxta Po'latxon - Mulla Ishoq o'ldirilganda 33 yoshda bo'lgan. Shu tariqa Qo'qon xonligi tugatiladi. Uning o'rniga tashkil etilgan Farg'ona viloyatiga general Skobelev harbiy gubernator etib tayinlanadi. Po'latxon o'ldirilgandan so'ng ham Farg'ona vodiysining turli hududlarida qo'zg'olonlar davom etadi. Ayniqsa, "Oloy malikasi" nomi bilan tanilgan ayol - Qurbonjon dodxoh va uning o'g'illari boshchiligidagi qo'zg'olon qariyb bir yil davom etadi.

REFERENCES

1. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy (Farg'ona chor mustamlakasi davrida). Nashrga tayyorlovchilar: Shodmon Vohidov, Dilorom Sangirova. T.: "Ma'naviyat", 1999.
2. Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin: "Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi" (Qo'qon xonligi tarixi) (Nashrga tayyorlovchi: A. Matg'oziev, M.

⁶Бабабеков Н. Х. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально – экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX вв) – Ташкент.: Фан. 1990. СС - 83

- Usmonova; So‘zboshi muallifi A. Matg‘oziev)T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti 1995.
3. Бабабеков Н. Х. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально – экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX ВВ) – Ташкент.: Фан. 1990.
 4. O‘zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob / Mas‘ul muharrir N. Abduazizova. - T.: “Sharq”, 2011.
 5. Bobobekov H. “Isyon”. “Sharq yulduzi” jurnali, 1989-yil, 11-son.